

O‘ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLAR
O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR TARIXI

Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o‘g‘li

Andijon davlat universiteti

Tarix fakulteti 301-guruh talabasi

Qodirjonovomadjon15@gmail.com

Abstrakt: O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat maqomini qo‘lga kiritgan vaqtdan boshlab dunyodagi barcha davlatlar bilan ijobiy aloqalarni yo‘lga qo‘yishga hamda ular bilan manfaatli loyihalarni amalga oshirishga harakat qilib kelmoqda. Bu o‘rinda dunyodagi eng taraqqiy etgan mamlakatlar bilan va yaqin qo‘shni davlatlar bilan ham yaxshi qo‘shnichilik munosabatlariga asoslangan aloqalarni ham yo‘lga qo‘yishga alohida e‘tibor berib kelmoqda.

Kalit so‘zlar: Diplomatiya, savdo-sotiq, hamkorlik, logistika, tranzit, shartnoma.

Abstract: Since the Republic of Uzbekistan gained the status of an independent state, it has been trying to establish positive relations with all the countries of the world and to implement beneficial projects with them. In this place, he pays special attention to establishing relations based on good neighborly relations with the most developed countries of the world and with neighboring countries.

Key words: Diplomacy, trade, cooperation, logistics, transit, contract.

Аннотация: С момента обретения Республики Узбекистан статуса независимого государства она пытается установить позитивные отношения со всеми странами мира и реализовать с ними выгодные проекты. Здесь он уделяет особое внимание установлению отношений, основанных на добрососедстве, с наиболее развитыми странами мира и со странами-соседями.

Ключевые слова: Дипломатия, торговля, сотрудничество, логистика, транзит, контракт.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgust kuni o‘z mustaqilligini e‘lon qiladi va ayni shu kuni qo‘shni Qirg‘iziston ham mustaqilligini e‘lon qiladi. O‘zbekistonga qo‘shni bo‘lgan Qozog‘iston, Tojikiston va Turkmaniston ham shu yili o‘z mustaqilligini e‘lon qiladi. Janubiy qo‘shni Afg‘oniston “Imperiyalar mozori” esa oldindan mustaqil bo‘lib kelgan O‘zbekistonning yagona qo‘shnisi hisoblanadi. Ushbu davlatlar O‘zbekistonning muhim hamkorlariga aylanadi. Bunga ushbu mamlakatlarning bir makonda joylashgani, madaniy jihatdan ham o‘zaro yaqinligi kabi omillar ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

TADQIQOT METODLARI

Ushbu maqola tarixiy tadqiqotlarning ilmiy obyektivlik, mantiqiy izchillik, qiyosiy tahlil, xronologik izchillik kabi usullari asosida yozildi.

NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini Xalqaro miqyosda tan olinishi fonida ko‘plab davlatlar iqtisodiy hamda madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yish istiqbollari ko‘rib chiqib boshladilar. Jumladan dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiruvchi AQSh, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya hamda yirik iqtisodiy potensialga ega bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston kabi davlartlardan tashqari O‘zbekistonga qo‘shni bo‘lgan davlatlar ham o‘zaro manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yishga harakat qildilar.

Tabiiyki O‘rta Osiyo markazida joylashgan O‘zbekiston qadimdan o‘zining qulay geografik joylashuvi sababli ko‘plab tarixiy yirik imperiyalarni o‘ziga jalb etib kelgan. Bugungi XXI asrda ham O‘zbekiston joylashgan hududning strategik ahamiyati o‘zining ahamiyatini saqlab qolgan.

O‘rta Osiyo xususan O‘zbekiston orqali ko‘plab ko‘plab tranzit yo‘llar o‘tkazish hamda turli xil investitsion loyihalarni amalga oshirish mumkin biroq bu O‘zbekistonning qo‘shni mamlakatlar bilan aloqalariga ham tom ma’noda bog‘liq, chunki O‘zbekistonning yirik iqtisodiy hamkorlari jumladan Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya singari mamlakatlar O‘zbekiston bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri chegaralarga ega emas, bu esa o‘rtadagi tranzitor vazifasini bajaruvchi davlatlar bilan ham ijobiy aloqalarni yo‘lga qo‘yishni talab etadi.

1992-yil 29-sentabrda Islom Karimov va Askar Akayev tomonidan imzolangan o‘zaro yordam haqida shartnoma natijasida O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama hamkorlik, ikki davlat o‘rtasida do‘stlik, asosida yo‘lga qo‘yildi va rivojlantirilmoqda. Bu shartnoma Qirg‘iziston Prezidenti Askar Akayevning O‘zbekistonga rasmiy davlat tashrifi paytida Toshkentda imzolangan edi[1]. Ushbu shartnoma imzolanganidan ko‘p vaqt o‘tmay 1992-yil iyulda Toshkentda Qirg‘iziston elchixonasi ochildi, 1998-yil oktabrdan esa Bishkekda O‘zbekiston elchixonasi faoliyat yurita boshladi.

1993-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Qirg‘iziston Respublikasiga uyushtirgan tashrifi davomida 1994-2000-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish to‘g‘risidagi bayonotni imzoladi. I.A. Karimov 1994-yil 16-yanvarda, 2000-yil 26-27-sentyabrda, 2007-yilda hamda 2013-yilda Qirg‘izistonga turli xil muhim masalalar yuzasidan tashrif buyurdi.

Qirg‘iziston Prezidenti Askar Akayev esa 1992, 1996, 1998-yillarda O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Kurmanbek Bakiyev 2006-yil, Almazbek Atambayev 2017-yilda, Sooronboy Jenbekov 2017-yilda O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

2016-yil Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Prezident vazifasini bajarishni boshlagach O‘zbekiston tashqi siyosati katta o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Qirg‘iziston Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasida joylashgani sababli O‘zbekistonning tashqi savdosida muhim o‘rin egallaydi. Uzoq vaqt mobaynida Xitoy va Qirg‘iziston o‘rtasida “China-Kyrgyzstan-Uzbekistan” temir yo‘lini qurish ustida ikki tomon uzoq vaqt davomida yakuniy kelishuvga erisha olmadi. Ushbu yo‘l O‘zbekiston uchun ham juda muhim bo‘lganligi sababli 2017-yildan boshlab O‘zbekiston Qirg‘izistonga “China-Kyrgyzstan-Uzbekistan” temir yo‘lini qurish masalasida yordam taklif eta boshlaydi. Ushbu masalada 2019-yil O‘zbekiston tashabbusi bilan muloqot ishiga Turkiya qo‘shildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ushbu harakatlaridan so‘nggina 1992-yildan beri muzlab kelayotgan, ushbu loyiha qayta jonlandi [2].

2023-yil 27-yanvarda O‘zbekiston Prezidenti va Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov o‘rtasidagi muzokaralar davomida, o‘zaro savdo hajmi 1,3 milliard dollarga yetgani, 300 dan ziyod qo‘shma korxonalar tashkil etilgani ta’kidlandi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida sanoat kooperatsiyasi loyihalari amalga oshirilayotgani va O‘zbekiston-Qirg‘iziston taraqqiyot fondi aniq loyihalarni moliyalashtirishni boshlaganiga alohida urg‘u berildi.

Biznes-forum doirasida umumiy qiymati 1,6 milliard dollarlik salmoqli shartnomalar to‘plami imzolanganini esa tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarning uzoq kelajakka mo‘ljallanganini bildiradi. Bundan tashqari, bunday forumlar bo‘lib o‘tishi tomonlarning o‘zaro ishonchining ham yuqori ekanini ko‘rsatadi [3].

Sanoat kooperatsiyasi doirasida qariyb 500 million dollarlik yangi investitsiya loyihalarini ishlab chiqish taklif qilindi. Avtomobillar, zamonaviy maishiy texnika, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, foydali qazilmalarni birgalikda qazib olish va qayta ishlash shular jumlasidan.

Mamlakatimiz yetakchisi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash doirasida qishloq xo‘jaligi sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashni hamkorlikning muhim yo‘nalishi sifatida qayd etdi.

Intensiv bog‘lar va issiqxona xo‘jaliklarini rivojlantirish, kartoshka, meva-sabzavot va chorvachilik mahsulotlarini yetkazib berish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va boshqa qo‘shma loyihalarni ishga tushirishga qaratilgan agrokooperatsiya dasturini amalga oshirish shu maqsadlarga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Prezidenti ikki mamlakat hududlari o‘rtasidagi sheriklik va to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni kengaytirish muhimligini ta’kidladi. Transport va logistika sohasidagi hamkorlik strategik ahamiyatga ega ekani qayd etildi. “Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish bo‘yicha ishlarni faollashtirish. Ushbu temir yo‘l qurilishini tezlashtirishdan Xitoy ham katta manfaatdorligi sababli

“Andijon-O‘sh-Irkishtom” avtomobil yo‘lining salohiyatini to‘liq ishga solish, shu maqsadda qo‘shma transport-logistika kompaniyasini tashkil etishga kelishib olindi.

Muzokarlarda energetika sohasidagi hamkorlikka alohida e‘tibor qaratildi. Hidroenergetikadagi loyihalarni amalga oshirish, shu jumladan Qambarota GES-1 qurilishi borasidagi birgalikdagi sa‘y-harakatlarni jadallashtirish zarurligi qayd etildi. Chingiz Aytmatovning 95 yilligini keng nishonlash, O‘shda Bobur nomidagi O‘zbek musiqali drama teatrining ochilishida birgalikda spektakl namoyish etish, ziyolilar va yoshlarni faol jalb qilgan holda yangi format – Avlodlar muloqotini tashkil etish, talabalar spartakiadasi, qo‘shma festival va konsertlar, ijodiy tadbirlarini o‘tkazish taklif qilindi.

1991-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Qozog‘istonga 25 ta tashrifi amalga oshirilgan va Qozog‘iston Prezidenti O‘zbekistonga 7 marotaba tashrif buyurgan. Bu esa Qozog‘iston hamda O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlarning nechog‘lik muhim ekanligini ko‘rsatib bermoqda

Qozog‘iston bilan ikki tomonlama hamkorlik, shubhasiz, mintaqada barqarorlikni ta‘minlash va dolzarb masalalarni birgalikda va samarali hal etishga xizmat qiladi. 2005-yilgacha ikki davlat o‘rtasida ikki tomon uchun ahamiyatli bo‘lgan 166 hujjat imzolangan. 2004-yil O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi tovar aylanmasi 425,9 mln. AQSh dollarini, jumladan, eksport 184,7 mln. AQSh dollarini, import 241,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

O‘zbekiston Tojikistondagi harbiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishda va uni ijobiy yechimini topishda sezilarli mavqeni egalladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov 1992-yil sentyabrda BMT ning Bosh kotibiga murojaatnoma yo‘llab, xalqaro hamjamiyat e‘tiborini Tojikiston muammolariga qaratib bu muammolarni tinch yo‘l bilan hal etishga chaqirdi. Tojikistonda tinchlik jarayonining amalga oshishi va ahdlashuvlarning barcha bosqichida O‘zbekiston rasmiy kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. 2000-yil 14—15-iyunda I.A. Karimovning rasmiy tashrif bilan Dushanbe shahrida bo‘lishi, E. Rahmonovning Toshkentda bo‘lishi o‘zbek-tojik munosabatlarning yangi pog‘onaga ko‘tarilishidan dalolat edi. 1998-yil yozda O‘zbekistonda Tojikiston Respublikasining madaniyat kunlari bo‘lib o‘tdi. 1995-yil Toshkent shahrida Tojikiston Respublikasining, 2000-yil Dushanbe shahrida O‘zbekiston Respublikasi elchixonasi ochilib, ular davlatlararo siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy aloqalarni muvofiqlashtirish yo‘lida xizmat qilmoqda. Keyingi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi bilan Tojikistonning savdo-iqtisodiy aloqalari birmuncha rivojlandi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida Tojikistonning ulushi 2003-yilda 2002-yilga nisbatan 24,7% oshdi va 2,2% ni tashkil etdi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayanib aytish mumkinki O‘zbekistonning mintaqaviy holati ijobiy bo‘lib, bu O‘zbekiston va butun O‘rta Osiyoga xalqaro miqyosdagi qiziqishni ortiradi. Bundan tashqari “CKU” temir yo‘lining qurilishi sababli mintaqaning ahamiyati yana ham ortadi. Tabiiyki bu Turkmaniston va Qozog‘istonning iqtisodiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu sababga ko‘ra O‘zbekistonga qo‘shni barcha davlatlar O‘zbekiston olib borayotgan faol tashqi siyosatni qo‘llab quvvatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston Tarixi. – T.: Akademnashr 2019. –B 550.
2. Kodirjonov Omadjon Tavakkaljon Ugli, & Muminov Khusanboy Madaminjanovich. (2024). HISTORY OF TRADE-INVESTMENT RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 4(02), 26–31. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue02-05>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/5844>
4. Кодиржонов , О. ., & Муминов , Х. (2023). Особенности политических и экономических отношений между Узбекистаном и Китайской Народной Республикой. *Общество и инновации*, 4(5), 78–82. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss5-pp78-82>